

## Jizzax viloyatida oliy ta'lim tizimi (2019-2020-o'quv yili boshida)

Bugungi kunda ta'lim inson faoliyatining barcha sohalarida yangi texnologiyalarni joriy etish, raqobatbardoshlikni oshirish, turmush darajasini ko'tarishning muhim omiliga aylanib bormoqda.

Hozirgi kunda yangi bilimlarni amalda qo'llay oladigan, muayyan kasb sohasidagi innovatsion imkoniyatlar ko'lamini tushunadigan kadrlarga talab yuqori. Bular nafaqat joriy xo'jalik va ishlab chiqarish masalalarini malakali hal qiladigan, balki to'g'ri qaror qabul qiladigan tahliliy qobiliyatga ega, yuqori darajali mutaxassislar bo'lishi lozim. Oliy ta'lim tizimi yuqori malakali mutaxassislar tayyorlashni ta'minlaydi. Oliy ta'lim ikki bosqichga: bakalavriat bosqichi–mutaxassisliklar yo'nalishi bo'yicha fundamental va amaliy bilim beradigan, ta'lim muddati kamida to'rt yil davom etadigan tayanch oliy ta'limdir. Magistratura bosqichi–aniq mutaxassislik bo'yicha fundamental va amaliy bilim beradigan, bakalavriat negizida ta'lim muddati kamida ikki yil davom etadigan oliy ta'limdir.

## Oliy ta'lim muassasalarining 2019-2020-o'quv yilida hududlar kesimida taqsimlanishi, **birlikda**



Jizzax viloyatida oliy ta'lim tizimida 3 ta oliy ta'lim muassasalari mavjud bo'lib, ularning tarkibida 1 ta universitet filiali faoliyat olib bormoqda.

Oliy ta'lim tizimini yanada takomillashtirish ta'lim sifatini oshirish, tizimiga innovatsion texnologiyalarni joriy etish maqsadida davlatimiz tomonidan oliy ta'lim tizimining huquqiy bazasi yanada takomillashtirildi. Jumladan, O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2017-yil 20-apreldagi "Oliy ta'lim tizimini yanada rivojlantirish chora-tadbirlari to'g'risida"gi PQ-2909-son qarori qabul qilindi. Shuningdek, O'zbekiston Respublikasida oliy ta'lim tizimli isloh qilishning ustuvor yo'nalishlarini belgilash, zamonaviy bilim va yuksak ma'naviy-axloqiy fazilatlarga ega, mustaqil fikrlaydigan yuqori malakali kadrlar tayyorlash jarayonini sifat jihatidan yangi bosqichga ko'tarish maqsadida, Respublika Prezidentining 2019-yil 8-avgustdagi "O'zbekiston Respublikasi Oliy ta'lim tizimini 2030-yilgacha rivojlantirish konsepsiyasini tasdiqlash to'g'risida"gi PF-5847-son Farmoni tasdiqlandi.

## 2019-2020-o'quv yilida oliy ta'lim muassasalariga qabul qilingan talabalarning bakalavr va magistratura yo'nalishu bo'yicha taqsimlanishi, **kishi**

**bakalavriat**



**magistratura**


Oliy ta'lim muassasalarida 2019-2020-o'quv yili boshida jami 6,0 ming kishi talabalikka qabul qilinib, ushbu ko'rsatkich o'tgan yilning mos davrida 4,9 ming kishini tashkil etgan, (1,1 ming kishiga, yoki 18,3 % ga oshgan). Qabul qilingan talabalarning 4,5 ming nafari kunduzgi 1,4 ming nafari sirtqi ta'lim shakliga qabul qilindi.

## Oliy ta'lim bakalavriat bosqichining asosiy ko'rsatkichlari


2019-yilda bakalavr darajasiga ega bo'lgan talabalar soni 17,6 ming nafarni tashkil etib, ularning 3,7 ming nafari davlat grantlari asosida ta'lim olgan. 2019-yilda bakalavriat bosqichini 2,8 ming nafar talabalar bitirdi. Bitirganlarning 0,9 ming nafari qizlar (32,1 %) tashkil etgan. 2020-yilda bakalavriatni 3,0 ming nafar talaba bitirishi kutilmoqda, ularning 1,0 ming nafari (30,1 %) davlat granti asosida tahsil olayotgan talabalarni tashkil qiladi.

2019-2020-o'quv yili boshiga oliy ta'lim muassasalarida jami 18,0 ming nafar talaba tahsil olmoqda, ulardan 9,0 ming nafari (50,0 % ni) qizlar tashkil etadi. Talabalarning 22,0 % i davlat grantlari asosida, 78,0 % i to'lov-shartnoma asosida tahsil olmoqda.

2019-yilda Jizzax viloyatida 1 ta universitet filiali faoliyat yurita boshladi. Ushbu filialda jami 0,2 ming nafar talabalar tahsil olmoqda.



davlat  
grantlari  
asosida



to'lov  
shartnoma  
asosida

## Oliy ta'lim muassasalarining magistratura bosqichiga talabalar qabuli

2019-2020-o'quv yili uchun magistraturaga jami 252 nafar talaba qabul qilingan. Talabalardan, 22,2 % i (56 nafari) davlat granti asosida, 77,8 % i (96 nafari) to'lov shartnomasi asosida qabul qilingan. 2018-2019-o'quv yilida magistraturaga jami 111 nafar qabul qilingan talabalardan, 45,9 % i (51 nafari) davlat granti asosida, 54,1 % i (60 nafari) to'lov shartnomasi asosida qabul qilingan. Magistraturaga qabul kvotalari o'tgan yilning mos davriga nisbatan 55,9 % ga oshgan, shu jumladan, davlat granti asosida qabul kvotalari ham 1,1 barobarga ko'paygan.

## Oliy ta'lim muassasalarida ta'lim olayotgan talabalarning jinsi bo'yicha taqsimlanishi, % da





## Oliy ta'lim muassasalarining bakalavriat bosqichida ta'lim olayotgan talabalarining ta'lim yo'nalishlari bo'yicha taqsimlanishi

2019-2020-o'quv yili boshida oliy o'quv yurtlarida jami tahsil olayotgan bakalavriat bosqichida talabalar soni 17,6 ming nafarga yetgan bo'lib, gumanitar sohada 11,7 ming nafar (66,5 %) talaba, ijtimoiy soha, iqtisodiyot va huquq yo'nalishlarida 0,2 ming nafar (1,1 %) talaba, ishlab chiqarish texnikasi sohasi yo'nalishi 4,9 ming nafar (27,9 %) talaba, qishloq va suv xo'jaligi 0,2 ming nafar (1,1 %) talaba, xizmatlar sohasida 0,6 ming nafar (3,4 %) talaba tahsil olmoqda.


## Ta'lim yo'nalishlari bo'yicha bakalavriat bosqichida tahsil olayotgan talabalarining ulushi, % da



## 2019-2020-o‘quv yili boshida talabalarning ta’lim turlari bo‘yicha taqsimlanishi

Mamlakatimizning barcha jabhalarida amalga oshirilayotgan keng ko‘lamli islohotlar ta’limning barcha bo‘g‘ini, ayniqsa, oliy ta’lim tizimida yaqqol ko‘zga tashlanmoqda. Bu jihatlar ta’lim sifatini tubdan takomillashtirish, oliy ta’lim muassasalarida yoshlarning qamrovini tobora oshirish kabilarda o‘zining yorqin ifodasini topmoqda. Jizzax viloyati bo‘yicha 3 ta oliy ta’lim muassasalarida jami 18,0 ming nafar talabadan 14,3 ming nafari (79,2 %) kunduzgi ta’lim shaklida, 3,7 ming nafari (20,8 %) sirtqi ta’lim shakli bo‘yicha tahsil olmoqda.

● Kunduzgi  
● Sirtqi



## Oliy ta’lim muassasalari talabalarining yoshi bo‘yicha taqsimlanishi (2019-2020-o‘quv yili boshida)

	Jami	17 yosh va undan kichik	18 yosh	19 yosh	20 yosh	21 yosh	22 yosh	23 yosh	24 yosh	24 yosh va undan katta
JIZZAX VILOYATI	18000	37	2143	2623	2916	1601	1842	1076	883	4879
Jizzax shahar	18000	37	2143	2623	2916	1601	1842	1076	883	4879

## 2019-2020-o‘quv yili boshida talabalarning ta’lim turlari bo‘yicha taqsimlanishi

Yoshlarni oliy ta’lim bilan qamrab olinishiva ular o‘rtasida sog‘lom raqobatni kuchaytirish asosiy vazifa hisoblanadi. Jizzax viloyatida oliy ta’lim muassasalarida tahsil olayotgan 17 yosh va undan kichik talabalar soni 37 nafar bo‘lib, jami talabalar sonining 0,2 % ini tashkil etsa, 25 yosh va undan katta bo‘lgan talabalar soni 4879 nafarni bo‘lib, jami talabalar soninig 27,1 % ini tashkil etadi.



## Oliy ta’lim muassasalarining bakalavriat bosqichiga qabul natijalari (2019-2020-o‘quv yili uchun)

	Topshirilgan arizalar	Qabul qilindi	Konkurs, kishi/100 o‘ringa
Ta’limning barcha turlari	55845	5759	970
Kunduzgi ta’lim shakli	39977	4363	916

Oliy ta’lim muassasalarining bakalavriat bosqichiga qabul natijalari tahlilidan ko‘rinadiki, ta’limning barcha turlariga topshirilgan arizalar soni 55845 tani tashkil etdi. Kunduzgi ta’lim shakliga topshirilgan arizalar soni 39977 ta bo‘lsa, sirtqi ta’lim shakliga esa 15868 ta ariza topshirilgan.


## 2019-2020-o‘quv yili boshida talabalarning ta’lim turlari bo‘yicha taqsimlanishi



2019-2020-o‘quv yili boshida Jizzax viloyatida oliy ta’lim muassasalarida ta’limning barcha turlari bo‘yicha bakalavriat bosqichiga jami abuturentlar tomonidan 55845 ta ariza topshirilgan bo‘lib, Jizzax viloyati bo‘yicha 100 o‘ringa 970 nafar kishini tashkil etgan.

## 2019-2020-o‘quv yili boshiga oliy ta’lim muassasalarida professor-o‘qituvchi xodimlarning jinsi bo‘yicha taqsimlanishi, foizda

2019-2020-o‘quv yili boshida Jizzax viloyatida oliy ta’lim muassasalarida jami 970 nafar professor-o‘qituvchilar (o‘rindoshlarsiz) faoliyat yuritmoqda. Shundan 282 nafari ayollar (29,1 %) ni tashkil etsa, 688 nafari erkaklar (70,9 %) dan iborat.



Oliy ta'lim muassasalarinning professor-o'qituvchi xodimlari soni,  
kishi  
(2019-2020-o'quv yili boshida)

	Asosiy (shtatdagi) xodimlar	Asosiy (shtatdagi) xodimlardan ilmiy daraja va ilmiy unvonga ega bo'lganlar:				
		Ilmiy darajaga			Ilmiy unvonga	
jizzax viloyati	970	28	166	31	17	136
Jizzax shahar	970	28	166	31	17	136

Viloyatimizda oliy ta'lim muassasalarida jami 970 nafar professor-o'qituvchilar faoliyat yuritayotgan bo'lib, fan doktori ilmiy darajasiga ega 28 nafarni, fan nomzodlari 166 nafarni hamda falsafa doktori 31 nafarni tashkil etmoqda. Shuningdek ilmiy unvoni bo'yicha professorlar 17 nafarni, dotsentlar 136 nafarni tashkil etadi.

2019-2020-o'quv yili boshiga Jizzax viloyatida oliy ta'lim muassasalarida bitta o'qituvchiga o'rtacha 19 nafar talaba to'g'ri keladi. Shu jumladan viloyatlar kesimida eng yuqori ko'rsatkichni ham Jizzax viloyatida qayd etildi.

Ijtimoiy soha statistikasi bo'limi

72-221-51-36

72-222-81-36